

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN MADHI

Shaxzoda Tursunova Toir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Muhammad Yusuf ijodi haqida fikr yuritiladi. Ijodkorning vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi she'rlari tahlil qilinadi. Shoirning tasvir mahorati va she'rlarining bugungi kundagi ahamiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, millatsevarlik, tasvir, ijod, mahorat, sadoqat, Ona yurt, farzand, muhabbat, sog'inch.

THE PRAISE OF MOTHERLAND IN THE WORKS OF MUKHAMMAD YUSUF.

Shakhzoda Tursunova Toir kizi

The student of Chirchik state pedagogical university

ABSTRACT: This article discusses the work of Muhammad Yusuf, a bright representative of Uzbek literature. The author's poems promoting patriotic ideas are analyzed. The importance of the poet's imagery and poems today is studied.

Key words: Patriotism, nationalism, image, creativity, skill, loyalty, motherland, child, love, longing.

Kirish.

Vatan—muqaddas zamin. Unda inson tug'iladi, bag'rida shod-xurramlikda voyaga yetadi. Vatan bizni mehr va muhabbat bilan ulg'aytiradi. Shu sabab, voyaga yetganimiz sari ushbu mehr va muhabbatni yanada ko'proq his qilamiz. Olisga ketishimiz bilan bu muhabbat bizni bag'riga chorlayveradi. Vatanga muhabbat inson qalbiga ona suti, allasi bilan jo bo'ladi. Vatanni butun ajdodlar, bobo-momolarimiz, ota-onamiz va o'zimizning kindik qonimiz to'kilgani bois ham muqaddas hisoblaymiz. Yurtning haqiqiy farzandlari manfaat uchun emas, yashayotgan zaminlari o'zlarining vatani bo'lganligi uchun ham sevadilar. Xalqimizda vatan onaga qiyoslanib unga ona so'zi qo'shib aytiladi. Ona vatan. Ona kabi farzandini ulg'aytiradigan, ona kabi bizni sog'intiradigan makon. Shu sabab yurtimizda vatanni onani suygandek sevishadi. Yosh-u qari, yigit-u qiz barcha birdek uning xizmatiga tayyor turishadi. Chunki vatan atalmish muqaddas zaminning xizmatida turish ham eng oliy baxt va saodatdir. Undan olislashimiz bilan o'zimiz uchun suv va havodek zarur bo'lgan narsadan ajralgandek bo'lamiz. Vatan o'z bag'ridan joy berganligi uchun bizdan hech narsa talab qilmaydi. Lekin har bir insonning hayotida o'zi ulg'aygan muqaddas zamin oldidagi burchni ado etish vazifasi ham mavjud. Bu sharaflil va muqaddas burch. Uni faqatgina, haqiqiy vatanparvarlik, musoblik hissi bilan ado etish mumkin. Shu sabab vatanini suygan inson borki, uning nomini ulug'laydi, xizmatida turadi, unga atab ash'orlar, kuylar bitadi. Ana shunday kishilar—ijodkorlardir. Ularni baland baland binolar, dabdaba va hashamatli buyumlar emas, vatanga muhabbat hissi ilhomlantiradi. Ularni Ona yurtining bir parcha tuprog'i ham, bir qarich yeri ham o'lmas asarlarni yaratishga undaydi. Haqiqiy el suygan ijodkorlarning bu kabi asarlari asrlar davomida yoddan chiqmaydi, she'rlar kuy bo'lib yangraydi. Insonlarning qalbida hech ham so'nmaydigan olov bo'lib yashaydi. Umuman olganda mana shunday ijodkorlarni vatan kashf etadi. Xuddi shunday xalqimiz kashf etgan, voyaga yetkazgan buyuk ijodkorlardan biri Muhammad Yusufdir. Yurtimizda ushbu shoirni bilmaydigan, she'rlarini o'qimagan yoxud kuy bo'lib yangaragan she'rlarni hirgoyi qilmagan kishini topish qiyin. El suygan shoir Muhammad Yusuf yurt madhini baralla kuylab, xalqimiz va butun dunyoda tan olingan ijodkordir. Shu boisdan uning o'lmas asarlari

bugungi kunda ham millati va mamlakatidan qat'iy nazar har bir inson uchun vatanni sevish va uni ardoqlashning yorqin namunasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Adabiyot shunday ajoyib gulzorki, unda yangi-yangi iqtidorlar unib- o'saveradi. Bu iqtidor egalari ijodkorlardir. Ular o'sib, o'zlarini ulg'aytirgan gulzorni ijodning eng go'zal namunalari bilan boyitaveradi. Ana shunday yurtimiz adabiyotini o'zing takrorlanmas ijod namunalari bilan boyitgan, el suygan, elning duosini olgan ijodkorlardan biri O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufdir. U 1954-yil Andijon viloyatining tarixan mashxur Marhamat (1858-yil Dukchi eshon qo'zg'aloni bo'lib o'tgan Mingtepa) tumanining Qovunchi qishlog'ida oddiy odamlar oilasida tavallud topgan. O'zi tug'ilgan qishloqda bolaligi o'tadi. O'rta maktab ta'limini olgach, Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga qabul qilinadi. Muhammad Yusuf ijodidan dastlabki namunalar 1976-yildan „O'zbekiston madaniyati“ gazetasida nashr qilinadi. Bu paytga kelib yurtimiz adabiyotida ko'zga ko'ringan Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi yosh ijodkorlar orasiga Muhammad Yusuf ham qo'shiladi. Qisqa fursat ichida o'zining ko'plab muxlislariga ega bo'ladi. Muhammad Yusufning she'rlari vaqtli matbuot sahifalarida tez-tez chop etilib turgan bo'lishiga qaramay, uning birinchi she'riy to'plami nisbatan kech – 1985-yilda e'lon qilinadi. Keyinchalik ijodkorning “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989), “Halima enam allalari” (1989), „Ishq kemasi” (1990), „Ko'nglimda bir yor” (1990), “Bevafo ko'p ekan” (1991), „Yolg'onchi yor”, „Erka kiyik” (1992), „Osmonimga olib ketaman”¹ singari she'riy to'plamlari o'quvchilar qo'liga yetib boradi. Muhammad Yusuf ijodi o'zining xalqonaligi bo'sidan ham xalqning qalbidan chuqur o'rin egalladi. Shoirning ijod namunalari orasida, ayniqsa, vatan, yurt mavzusidagi she'rlar tarbiyaviy jihatdan nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning har birida vatanni sevish, uni qadrlash, mas'uliyat va muhabbat bilan xizmat qilish targ'ib qilinadi. Xalqimizning milliy odatlari, asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan an'analariga hurmat bildiriladi.

NATIJALAR:

Muhammad Yusufning rang-barang she'rlari orasida, eng ma'lum va mashxuri „Vatanim“ she'ridir. She'rni o'qir ekanmiz, uni o'zimiz yozgandek tuyukaveradi. Vatan uchun bu kabi eng munosib va samimiyni ta'firi vatanini chin dildan suygan inson qalbi bilan yaratilgani sezilib turadi. She'rning har bir so'zi, har bandida muhabbat va samimiylik ufurib turadi. Vatan va kishining taqdiri qay darajada bog'liqligi sodda va hayotiy misralar bilan so'zlanadi. Vatan nomi ulug'lanadi she'rda. Har bir jumlada inson umrining bir parchasi, yurtimiz tarixining bir bo'lagi yoritib beriladi. She'rni o'qir ekanmiz, ko'p yillik tarixni o'qigandek, tarixdan chiqarilgan xulosalarni, haqiqatlarni o'rgangandek, uqqandek bo'lamiz. She'r shoirning dunyoga uchmasligi, uning uchun o'zi tug'ilib o'sgan zamin bir dunyo ekanligi bilan boshlanib, quyidagi misralar bilan davom etadi:

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi, Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri
Ilig'imsan, Vatanim².

Shoir o'zining xursandchilik kunlarini eslar ekan, bunday kunlarda vatanini uning izlariga quvonchdan gullar sochganga qiyoslaydi. Misra davomida nolon ya'ni xafa kunlarini, bu kunlarning yupativchisi ham aynan Ona vatani bo'lganligini aytadi. Vatanni eng samimiy, eng mehribon insonlarga singilga, onaga o'xshatadi Muhammad Yusuf. Boisi ular har qanday kunda ham yolg'iz qo'yishmaydi, g'amxo'rlik qilishadi. Vatanning tafti ham ularning tuganmas mehrlariga qiyoslanadi. Ijodkor bu mehrni oftobdan ham iliqroq deb ta'riflaydi.

O'tgan kuning — o'tgan kundir,
O'z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lin bog'lab, Dilin dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug'imsan, Vatanim³...

She'rning ushbu jumlasida millatimizning ko'p yillik va keng tarixiga ega bo'lgan, adabiyotimizda nihoyatda katta o'rin egallagan asarlardan biri Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ asariga ishora qilinadi. Asarda badiiy to'qima emas, aksincha, hayotning achchiq haqiqatlari aks etganligi ifodalanadi. She'r davomida yana vatanga yuzlanadi shoir. Adabiyotimizning darg'alaridan biri bo'lmish Abdulla Qodiriyni saqlab qololmaganligini, uni chetdan boshqa birov emas, o'z yurtdoshi, og'asi, inisi sotganligi haqida dard bilan so'zlaydi. Vatanga shuncha dard cheksa ham, bir farzandi boshqa birini sotsa, yana bir farzandi sotqinlik va qo'rqqoqlikning qurboni bo'lsa ham dardlarini ichiga yutgan onaga qiyoslaydi. Shu o'rinda vatanga qarata samimiylik va achchiq haqiqatni o'zida jamlagan „dudug'imsan“ o'xshatishini qo'llaydi. Vatanga qarata eng go'zal va samimiy o'xshatishlarni Muhammad Yusufning aynan mana shu she'ridan topish mumkin. Shoir vatanga „ulug'imsan, ilig'imsan, qo'rig'imsan, cho'lig'imsan, urug'imsan, so'lig'imsan, dudug'imsan, ulug'imsan“, deb murojaat qiladi. She'r davomida tariximizning qahramonlari, yurtimizning har sohasida ma'naviyat pillapoyalarini qo'ygan buyuk shaxslar e'tirof etiladi. Bu shaxslardan: Mashrab, Navoiy, Yasavviy, Temur Malik, Muqanna, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Abdulla Qodiriy kabi ota-bobolarimizning nomlari alohida ta'kidlanadi. Ularning xislatlari: vatanparvarligi, yurt uchun jonini ham ayamasi, jasurligi, xalqparvar, adolatli davlat arbobi bo'lganligi namuna qilib ko'rsatiladi bugungi kun kishilariga. She'rda ajdodlarimizning yurtimiz farovonligi oldidagi unutilgan bo'lmas hissasi va bu yo'ldagi katta yo'qotishlar haqida so'z yuritiladi. Muhammad Yusufning vatan haqidagi she'rlari bisyor. Barchasida bir-biridan turfa tashbihlar qo'llanilgan yurtga nisbatan. Samimiy satrlarga yaratilgan she'rlardan biri, „Iqror“ she'ridir.

O, ota makonim, Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga⁴.

Muhammad Yusuf samimiyati sodda detallardan ham go'zal tashbihlarni yaratadi. Vatanni ota makonga, onajon o'lkaga o'xshatib boshlanadigan bu she'rda shoir yurt uchun jonini ham ayamastligini aytadi. Dunyo tan olgan go'zallikka bisyor shahar Rimni yurtining oddiygina bedapoyasiga ham alishmasligini aytadi. Aynan mana shu jumla vatanini suygan har insonning ko'nglida so'nmas cho'g' bo'lib o'rin egallagan. Bu misrani xalq biladi, uni yodida, qalbida takrorlab yuradi. Bu vatanga muhabbatning sodda va samimiy ko'rinishlaridan biri.

Bildimki, baridan ulug'i o'zing,

Bildimki, yaqini shu tuproq menga.

Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing,

Arab ohusidan azizroq menga⁵.

Ushbu misralarda esa shoir dunyoning eng go'zal va dong taratgan yurtlariga sayohatdan ko'ra vatanini ustun qo'yadi. O'ziga baland binoli shaharlar emas, yurtining tuprog'i qadrililigini angelaydi. Ona yurtining ko'klamida tug'ilgan qo'zichoqni Arab ohusidan ham azizroqligini aytadi. Yana bir ajoyib she'rlardan biri „Vatan" she'ridir.

Ey menga ertaklar so'ylagan Zamin,

Ergashib izingdan qolmasman sening.

O'zgalar nazdida Bog'i Eraming

Jiydang yaprog'iga olmasman sening.

Vatan, qayda bõlmay, sen hamrohimsan,

Bobolarim yotar sajdagohimsan⁶.

Yuqoridagi she'rda ham shoir vatanni bolalikdan unga ertaklar so'zlab bag'rida voyaga yetkazganligini, uning uchun vatanini unib o'sgan jiyda yaprog'i aziz va muqaddasligini aytadi. Ijodkor vatanning sajdagoh kabi muqaddasligiga yuzlanib, unda bobolar hoki borligini ta'kidlaydi.

XULOSA.

Said Ahmad yozganidek: „ Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Biror shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo'lmagan. Ochig'ini aytsam, Muhammadga ko'z tegdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortdan agadir yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o'lmas meros qoldirdi. Muhammad she'r muxlislarining yuragini o'rtab ketdi. Endi shoirning o'zi yo'q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she'riyat bor. Bu she'riyat aslo zavol bo'lmaydi"⁷. Haqiqatdan ham, Muhammad Yusuf she'riyatini hali hanuzgacha butun xalqimiz, dunyo qadrlaydi. Chunki uning asarlarida eng toza tuyg'ular o'zining samimiy ifodasini topgan. Vatan haqida ham har bir inson kuylashi mumkin. Lekin yurakdan yonib, xalqning qalbini aks ettirib kuylaydiganlargina haqiqiy ijodkor bo'la olishadi. Muhammad Yusuf ana shunday ijodkor edi. Shoirning asarlarini o'qir ekanmiz yoddan chiqaray degan qadriyatlarimizni, ota-bobolarimizdan qolgan meros qayta yodimizga solingandek tuyuladi. Shu boisdan ham uning she'rlari tarbiyaviy, ahloqiy, ma'naviy jihatdan o'zining yuksak ahamiyatini yo'qotmay, yanada oshirib kelmoqda.

REFERENCES:

1,2,3. Adabiyot 8-sinf uchun darslik 2-qism (2014-yil),—Toshkent: G'afur G'ulom. 131-140-betlar

4,5. Saylanma, Muhammad Yusuf. (2007-yil)—Toshkent, Sharq, 349-bet

6. Xalq bo'l, elim, M, Yusuf (2005-yil)—Toshkent: O'zbekiston. 6-bet

7. <http://staff.tiame.uz>